DUAL TA’LIMDA TURIZM MUTAXASSISLARI KASBIY KOMPETENSIYALARINING AMALIY KOMPONENTINI OTM–KORXONA HAMKORLIGI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Mamatova Nasiba
Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur tezisda dual ta’lim sharoitida bo‘lajak turizm mutaxassislari kasbiy kompetensiyalarining amaliy komponentini rivojlantirishda oliy ta’lim muassasasi va turizm korxonasi o‘rtasidagi hamkorlikning o‘rni tahlil qilinadi. Turizm ta’limida nazariy bilim bilan real kasbiy faoliyat o‘rtasidagi bog‘liqlik yetarlicha ta’minlanmasa, talabaning ish muhitiga moslashishi va egallagan bilimlarini amalda qo‘llashida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkinligi asoslanadi. Shu jihatdan OTM, turizm korxonasi va talabaning vazifalarini oldindan belgilash, korxonadagi amaliy topshiriqlarni o‘quv natijalari bilan bog‘lash, amaliyot rahbarining faol ishtirokini ta’minlash, muntazam teskari aloqa va hamkorlikdagi baholashni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Tezisda turizm yo‘nalishidagi dual ta’lim jarayonini rejalashtirishdan boshlab amaliy faoliyat, monitoring, refleksiya va yakuniy baholashgacha bo‘lgan bosqichlarda OTM va korxona hamkorligini tashkil etishga doir metodik takliflar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: dual ta’lim, turizm ta’limi, kasbiy kompetensiya, amaliy komponent, oliy ta’lim muassasasi, turizm korxonasi.

Kirish. Turizm nazariy bilimni amaliy tajribadan ajratib o‘rganish qiyin bo‘lgan kasbiy sohalardan biridir. Talaba mehmonxona faoliyati, turistik xizmatlar yoki mijozlar bilan ishlashga oid zarur nazariy bilimlarni o‘zlashtirishi mumkin, biroq real ish muhiti undan bu bilimlarni muayyan vaziyatga moslashtirishni ham talab qiladi. Mijozning kutilmagan savoliga javob berish, bir nechta xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan ishlash, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash yoki muammoli holatda tezkor qaror qabul qilish amaliy tajribasiz shakllanishi qiyin bo‘lgan ko‘nikmalardir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi 14-son qarorida dual ta’lim nazariy qismi oliy ta’lim tashkilotida, amaliy qismi esa korxonada o‘tkaziladigan ta’lim jarayoni sifatida belgilangan. Nizomga ko‘ra, dual ta’lim dasturi oliy ta’lim tashkiloti va korxona hamkorligida ishlab chiqiladi, korxonada talabaga tajribali xodimlardan amaliyot rahbari — ustoz biriktiriladi, nazariy va amaliy qismlardagi faoliyat esa tegishli ravishda professor-o‘qituvchi va korxona ustozlari tomonidan muvofiqlashtiriladi [1].

Shu jihatdan dual ta’limni talabani ma’lum muddatga korxonaga yuborish bilangina tenglashtirish to‘g‘ri emas. Korxonadagi ish talabaning o‘quv dasturi

va rivojlantirilishi kerak bo‘lgan kasbiy kompetensiyalari bilan bog‘langan taqdirdagina u haqiqiy ta’limiy mazmun kasb etadi.

C.T.H. Khuong tomonidan turizm ta’limi dasturlari misolida olib borilgan tadqiqotda ta’lim muassasasi, korxona va talaba o‘rtasidagi aloqalar yetarlicha barqaror va tizimli bo‘lmaganda ish bilan integratsiyalashgan ta’limning imkoniyatlari to‘liq namoyon bo‘lmasligi aniqlangan. Muallif o‘rgangan holatlarda mazkur uch tomon o‘rtasidagi aloqalarning yuzaki va barqaror emasligi bitiruvchilarning soha talablariga mos bilim va ko‘nikmalar bilan tayyorlanishiga to‘sqinlik qilayotganini qayd etadi [2]. Demak, masala talabaning amaliyotga chiqishida emas, balki uning amaliy faoliyati qanday mazmun va hamkorlik asosida tashkil etilishidadir.

OTM va korxona hamkorligining mazmuni. Dual ta’limda oliy ta’lim muassasasi va turizm korxonasi ikki alohida tashkilot bo‘lsa-da, talabaning kasbiy tayyorgarligi nuqtai nazaridan ular yagona jarayonning hamkor tomonlari hisoblanadi. OTM talabaning nazariy va metodik tayyorgarligini, belgilangan o‘quv natijalariga erishishini ta’minlaydi. Turizm korxonasi esa unga real ish muhiti, kasbiy vazifalar va tajribali xodim bilan ishlash imkoniyatini yaratadi. Talaba esa mazkur jarayonning passiv ishtirokchisi emas, o‘z kasbiy rivojlanishi uchun javobgarlikni asta-sekin zimmasiga oladigan faol subyekt sifatida qatnashishi kerak.

A.Henderson va F.Trede ish bilan integratsiyalashgan ta’lim samaradorligi universitet, korxona va talaba o‘rtasidagi sifatli hamkorlikka bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Ularning yondashuvida umumiy maqsadlarni tushunish, ishtirokchilarning vazifalarini aniqlashtirish, o‘zaro ishonch va o‘quv natijalariga yo‘naltirilgan hamkorlik muhim o‘rin egallaydi [3]. Turizm ta’limida bu tamoyil korxonadagi har bir vazifaning talabada qanday kasbiy kompetensiyani rivojlantirishiga oldindan e’tibor berishni talab qiladi.

Amaliy topshiriq va o‘quv natijasi. Dual ta’limning metodik jihatdan murakkab masalalaridan biri universitetdagi o‘quv dasturi bilan korxonadagi real ish vazifalarini muvofiqlashtirishdir. Masalan, universitetda “Turistik xizmatlarni tashkil etish” mavzusi o‘rganilgan bo‘lsa, amaliy qismda talabaga shu mazmun bilan bog‘liq real vazifa berilishi mumkin. Talaba muayyan turist yoki guruhning ehtiyojlarini aniqlaydi, tegishli xizmatlarni tanlaydi, marshrut va dastur tuzadi, xarajatlarni hisoblaydi va tayyorlagan taklifini amaliyot rahbari bilan tahlil qiladi.

Bunday topshiriq auditoriyada o‘rganilgan bilimning ish muhitida qanday qo‘llanishini ko‘rsatadi. Stansbie, Nash va Changning mehmondo‘stlik hamda turizm boshqaruvi talabalari bilan olib borgan tadqiqoti ham amaliyot davrida auditoriyada o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarning real vaziyatlar bilan bog‘lanishi va talabalar yangi kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishini ko‘rsatgan [4].

Shu sababli korxonadagi amaliy topshiriqlar oldindan rejalashtirilishi va ular o‘quv dasturining tegishli natijalari bilan bog‘lanishi kerak. Talabaga ish berishning o‘zi yetarli emas. U nima uchun aynan shu vazifani bajarayotgani va natijada qaysi kompetensiyasini rivojlantirayotganini tushunishi muhim.

Amaliyot rahbarining o‘rni. Korxonadagi amaliyot rahbari — ustoz dual ta’lim sifatiga bevosita ta’sir qiladigan ishtirokchilardan biridir. O‘zbekistonning amaldagi dual ta’lim Nizomida ham korxona tomonidan har bir talabaga tajribali xodimlardan amaliyot rahbari biriktirilishi belgilangan [1].

Talaba yangi ish muhitiga kirgan dastlabki davrda undan tajribali mutaxassis darajasidagi mustaqillikni kutish to‘g‘ri emas. Vazifalar uning tayyorgarlik darajasiga mos bo‘lishi, keyinchalik esa asta-sekin murakkablashib borishi kerak. Ustoz talabaga ishni tayyor shaklda bajarib bermaydi, balki vazifani tushunishi, to‘g‘ri qaror qabul qilishi va o‘z xatolaridan xulosa chiqarishiga yordam beradi.

C. Bilsland va H. Nagy korxonalardagi amaliyot rahbarlarining ish bilan integratsiyalashgan ta’lim haqidagi qarashlarini o‘rgangan tadqiqotida universitet bilan amaliyot rahbarlari o‘rtasidagi axborot almashinuvi, talabaning maqsadlari haqida oldindan ma’lumot berish va rahbarni ta’lim jarayoniga faol jalb qilish amaliyotni yaxshilash uchun muhimligini ko‘rsatgan [5]. Masalan, mehmonxonada mijoz xizmatdan norozi bo‘lgan vaziyatda talaba avval imkon qadar mustaqil yechim topishga harakat qiladi. Vaziyat yakunlangach, ustoz uning xatti-harakatlarini talaba bilan birgalikda tahlil qiladi: nima to‘g‘ri bajarildi, qayerda xato qilindi va boshqa qanday yechim taklif qilish mumkin edi. Shu tarzda kundalik ish holati kasbiy o‘rganish imkoniyatiga aylanadi.

Muntazam teskari aloqa. Dual ta’limda teskari aloqani faqat amaliyot oxiridagi tavsifnoma bilan cheklash maqsadga muvofiq emas. Talaba xato qilganidan bir necha oy keyin emas, aynan o‘rganish jarayonida nimani tuzatishi kerakligini bilishi foydaliroq.

Shu sababli o‘qituvchi, talaba va amaliyot rahbari o‘rtasida muntazam aloqani yo‘lga qo‘yish kerak. Belgilangan davr oralig‘ida bajarilgan vazifalar, yuzaga kelgan qiyinchiliklar, rivojlanayotgan kompetensiyalar va keyingi vazifalar qisqacha muhokama qilinishi mumkin. Bunday teskari aloqa bevosita uchrashuv yoki raqamli aloqa vositalari orqali amalga oshirilishi mumkin. Muhimi, u muntazam va kasbiy rivojlanish maqsadiga yo‘naltirilgan bo‘lishidir.

Henderson va Trede ham sifatli ish joyidagi ta’lim uchun talabaning oldindan tayyorlanishi, akademik va korxona rahbarlarining qo‘llab-quvvatlashi, teskari aloqa va refleksiya uchun sharoit yaratilishi zarurligini ta’kidlaydi [3].

Hamkorlikdagi baholash. Dual ta’limda talabaning kasbiy kompetensiyalarini baholash ham OTM va korxona o‘rtasidagi hamkorlikni

talab qiladi. O‘qituvchi nazariy tayyorgarlikni yaxshi baholay oladi, biroq talabaning ish joyidagi barcha xatti-harakatlarini kuzatmaydi. Korxonadagi amaliyot rahbari esa talabaning real mijoz, jamoa va ish jarayonidagi faoliyatini bevosita ko‘radi. Shu sababli amaliy komponentni baholashda o‘qituvchi va amaliyot rahbarining fikrlarini umumiy mezonlar asosida uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq. Talabaning o‘z faoliyatiga bergan refleksiv bahosi ham qo‘shimcha manba sifatida ishlatilishi mumkin.

Baholash mezonlari turizm sohasining xususiyatiga mos ravishda kasbiy bilimni amalda qo‘llash, mijoz bilan muloqot, jamoada ishlash, mas’uliyat, muammoni hal qilish, tegishli raqamli vositalardan foydalanish, mustaqillik va kasbiy etikani qamrab olishi mumkin.

O‘zbekiston dual ta’lim Nizomida ham oliy ta’lim tashkilotining korxona bilan birgalikda talabalarni baholashni tashkil etishi nazarda tutilgan [1]. Shunday ekan, universitet va korxona tomonidan umumiy baholash mezonlarining ishlab chiqilishi amaldagi milliy modelning mantiqiga ham mos keladi.

OTM–korxona hamkorligining bosqichlari. Turizm yo‘nalishidagi dual ta’limda OTM va korxona hamkorligini izchil tashkil etish uchun uni bir necha bosqichda ko‘rib chiqish mumkin:

1. Birinchi bosqich — rejalashtirish. OTM va korxona talabaning amaliy faoliyati davomida rivojlantiriladigan kasbiy kompetensiyalar va kutilayotgan o‘quv natijalarini aniqlaydi.
2. Ikkinchi bosqich — topshiriqlarni muvofiqlashtirish. O‘quv dasturidagi nazariy mavzular korxonadagi real vazifalar bilan bog‘lanadi.
3. Uchinchi bosqich — tayyorgarlik. Talaba korxonadagi faoliyatdan oldin tegishli nazariy, kommunikativ va kasbiy tayyorgarlikdan o‘tadi.
4. To‘rtinchi bosqich — amaliy faoliyat. Talaba amaliyot rahbari kuzatuvida real kasbiy vazifalarni bajaradi.
5. Beshinchi bosqich — monitoring va teskari aloqa. O‘qituvchi va korxona rahbari talabaning rivojlanishini kuzatib, zarur tavsiyalar beradi.
6. Oltinchi bosqich — refleksiya. Talaba bajarilgan vazifalar, erishilgan natijalar va qiyinchiliklarni tahlil qiladi.
7. Yettinchi bosqich — hamkorlikdagi baholash. Natijalar oldindan kelishilgan mezonlar asosida baholanadi.
8. Sakkizinchi bosqich — takomillashtirish. Amaliy faoliyatdan olingan tajriba keyingi ta’lim jarayoni va amaliy topshiriqlarni takomillashtirishda hisobga olinadi.

Bu jarayonning so‘nggi bosqichi ayniqsa muhim. Korxona fikri faqat ayrim talabalarni baholash uchun emas, balki turizm ta’limi mazmunini mehnat bozori talablariga yaqinlashtirish uchun ham xizmat qilishi kerak.

Amaliy faoliyatning ta’limiy mazmunini saqlash. Dual ta’limda e’tibor talab qiladigan jihatlardan biri talabaning korxonadagi faoliyati mazmunidir. Talaba faqat oddiy, yordamchi yoki muntazam takrorlanadigan vazifalar bilan band bo‘lsa, u ish muhiti bilan tanishishi mumkin, biroq uning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyati cheklanadi.

Khuongning turizm ta’limiga oid tadqiqoti ham korxona va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi zaif hamkorlik amaliy tayyorgarlikning ta’limiy qiymatini pasaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi [2].

Mehmondo‘stlik amaliyotlariga bag‘ishlangan 69 ta ilmiy ishni tahlil qilgan Zopiatis, Papadopoulos va Theofanous ham amaliyot tajribasini tushunishda talaba, ta’lim muassasasi va soha vakillarining o‘zaro aloqasiga e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi [6]. Shu sababli korxonadagi vazifalar talabaning tayyorgarlik darajasi va o‘quv maqsadiga mos tanlanishi kerak. Talaba nima qilayotganini emas, nima o‘rganayotganini ham tushunishi lozim.

Xulosa. Dual ta’limning samaradorligi talabaning korxonada qancha vaqt o‘tkazishi bilangina belgilanmaydi. Asosiy masala shu vaqt davomida uning qanday kasbiy vazifalarni bajarishi, kim tomonidan yo‘naltirilishi, qanday teskari aloqa olishi va faoliyati qay tarzda baholanishidadir. Turizm sohasida OTM va korxona o‘rtasidagi barqaror hamkorlik ayniqsa muhim, chunki bo‘lajak mutaxassisning mijoz bilan ishlash, xizmat ko‘rsatish, muammoli vaziyatni hal qilish va mustaqil kasbiy qaror qabul qilish kabi ko‘plab kompetensiyalari real ish muhiti bilan bevosita bog‘liq.

Shuning uchun dual ta’limni tashkil etishda OTM, turizm korxonasi va talabaning vazifalari oldindan kelishib olinishi, o‘quv dasturidagi nazariy mazmun amaliy topshiriqlar bilan bog‘lanishi, korxonada malakali ustoz biriktirilishi, muntazam teskari aloqa yo‘lga qo‘yilishi va baholash umumiy mezonlar asosida amalga oshirilishi zarur.

Turizm mutaxassislari kasbiy kompetensiyalarining amaliy komponentini rivojlantirishda “rejalashtirish – amaliy vazifa – ustozlik – monitoring – refleksiya – hamkorlikdagi baholash – takomillashtirish” ketma-ketligi OTM va korxona o‘rtasidagi hamkorlikni mazmunli tashkil etishga xizmat qilishi mumkin.

Bunday yondashuvda dual ta’lim OTM va korxona o‘rtasidagi oddiy tashkiliy kelishuv emas, balki nazariy bilim va real kasbiy tajribani birlashtiradigan yaxlit ta’lim jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi 14-son “Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. Khuong C.T.H. Work-Integrated Learning Process in Tourism Training Programs in Vietnam: Voices of Education and Industry // Asia-Pacific Journal of Cooperative Education. – 2016. – Vol. 17, No. 2. – P. 149–161.
3. Henderson A., Trede F. Strengthening Attainment of Student Learning Outcomes During Work-Integrated Learning: A Collaborative Governance Framework across Academia, Industry and Students // Asia-Pacific Journal of Cooperative Education. – 2017. – Vol. 18, No. 1. – P. 73–80.
4. Stansbie P., Nash R., Chang S. Linking Internships and Classroom Learning: A Case Study Examination of Hospitality and Tourism Management Students // Journal of Hospitality, Leisure, Sport & Tourism Education. – 2016. – Vol. 19. – P. 19–29. – DOI: 10.1016/j.jhlste.2016.07.001.
5. Bilsland C., Nagy H. Work-Integrated Learning in Vietnam: Perspectives of Intern Work Supervisors // Asia-Pacific Journal of Cooperative Education. – 2015. – Vol. 16, No. 3. – P. 185–198.
6. Zopiatis A., Papadopoulos C., Theofanous Y. A Systematic Review of Literature on Hospitality Internships // Journal of Hospitality, Leisure, Sport & Tourism Education. – 2021. – Vol. 28. – Article 100309. – DOI: 10.1016/j.jhlste.2021.100309.